



## O'ZBEKISTONDA HUNARMANDCHILIK FAOLIYATINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JORIY ETILISHI

**Israilova Feruza Nazrillayevna**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0009-0004-0131-7242  
[f.isroilova@tsue.uz](mailto:f.isroilova@tsue.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekistonda hunarmandchilik faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda sohaga raqamli texnologiyalarning joriy etilishiga bag'ishlangan bo'lib, hunarmandchilikning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar orqali hunarmandlarning mahsulot ishlab chiqarish va savdoda samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Sohada innovatsiyalar va IT yechimlarning joriy etilishi orqali hunarmandchilik rivojlanishining istiqbollari o'rganiladi. Shuningdek, Xulosa sifatida, raqamli texnologiyalarning hunarmandchilik sohasidagi rolini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** hunarmandchilik, iqtisodiy ko'rsatkichlar, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, mahsulot ishlab chiqarish, samaradorlik, IT yechimlar, O'zbekiston iqtisodiyoti

## ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕМЕСЛЕННОСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Исраилова Феруза Назриллаевна**  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** Данная статья посвящена экономическим показателям ремесленной деятельности в Узбекистане и внедрению цифровых технологий в эту сферу, а также анализируется роль и значение ремесленничества в экономике страны. Рассматриваются возможности повышения эффективности производства и сбыта ремесленных изделий с использованием цифровых технологий. Изучаются перспективы развития ремесленничества через внедрение инноваций и IT-решений в отрасль. В заключение предлагаются рекомендации по усилению роли цифровых технологий в сфере ремесленничества.

**Ключевые слова:** ремесленничество, экономические показатели, цифровые технологии, инновации, производство продукции, эффективность, IT-решения, экономика Узбекистана

## ECONOMIC INDICATORS OF HANDICRAFT ACTIVITIES IN UZBEKISTAN AND THE INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES

*Israilova Feruza Nazrillayevna*  
*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article is dedicated to the economic indicators of handicraft activities in Uzbekistan and the introduction of digital technologies into the sector, analyzing the role and significance of handicrafts in the national economy. The opportunities to enhance the efficiency of product manufacturing and sales through digital technologies are explored. The prospects for the development of handicrafts through the implementation of innovations and IT solutions in the sector are also examined. In conclusion, recommendations are provided to strengthen the role of digital technologies in the handicraft industry.*

**Keywords:** *handicrafts, economic indicators, digital technologies, innovations, product manufacturing, efficiency, IT solutions, Uzbekistan's economy.*

### **Kirish.**

Hozirda butun dunyoda sun'iy intellektga va texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish mahsulotlari bozorlarni to'ldirgan. Biroq insoniyat inson qo'li bilan yaratilgan mahsulotlarni, tovarlarni, suvenirnlarni hanuzgacha katta qiziqish va hayajon bilan qabul qilmoqda. Bizda, vatanimizda bugungi kunda hunarmandchilik sohasida qanday ishlar olib borilmoqda?, qonuniy jihatdan ularning huquq va majburiyatlari borasida keyingi yillarda qanday o'zgarishlar amalga oshirilmoqda? Ushu savollarga quyidagicha javob berishimiz mumkin: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilda 30 dekabrda PQ-77-sonli<sup>3</sup> "hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu sohaga e'tiborni yanada kuchaytirdi va sohadagi yo'lni belgilab berdi. Ushbu qarorda sohadagi kelgusi ishlar uchun yo'l haridasi, o'quv dasturlari va bozorga kirish tashabbuslari ko'zda tutilgan. Maqsad esa an'anaviy hunarmandchilikni saqlab qolish va shu bilan birga, ushbu sohada innovatsiyalarni rag'batlantirishdir (Qonun, 2021).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 sentyabrda "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son qonunida hunarmandchilik qolaversa, boshqa tovarlarni elektron tarzda sotish bo'yicha yo'l- yo'riqlar keltirilgan.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida ham hunarmandchilik sohasida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

**Hunarmandchilikni rivojlantirish:** O'zbekistonning milliy madaniy merosini saqlash va rivojlantirish maqsadida hunarmandchilikning turli yo'nalishlari qo'llab-quvvatlanadi. Bu hunarmandlarning zamonaviy texnologiyalar va an'anaviy uslublarni birlashtirish orqali mahsulotlar yaratishini rag'batlantiradi.

**Iqtisodiy yuksalish:** Hunarmandchilik O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim sohalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu soha orqali milliy mahsulotlarni eksport qilish va mahalliy bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

**Yangi ish o'rinlari yaratish:** Hunarmandchilikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash va kasb-hunar ta'limini kuchaytirish nazarda tutilgan. Bu esa yoshlarga kasbiy mahorat va amaliy ko'nikmalar berishga yordam beradi (Kodeks, 2022).

**Davlat ko'magini kengaytirish:** Hunarmandlarga davlat tomonidan ko'mak berish, ular uchun soliq imtiyozlari, kreditlar va subsidiyalar taqdim etish orqali sohani rivojlantirish choralari ko'riladi.

<sup>3</sup> <https://lex.uz/>

**Turizmni rivojlantirish:** Hunarmandchilik mahsulotlari orqali turizm salohiyatini oshirish, sayyohlarni milliy madaniyat va an'analar bilan tanishtirish strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir<sup>4</sup>.

Ushbu strategiyalar hunarmandchilik sohasini yuksaltirishga, milliy madaniyatni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, hunarmandchilikni rivojlantirish uchun byudjet ajratmalari haqida to'xtalsak: 2024-yil davlat byudjetida hunarmandchilikni rivojlantirish uchun maxsus mablag'lar ajratilgan. Ushbu mablag'lar o'quv dasturlari, infratuzilmani rivojlantirish va O'zbek hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro miqyosda targ'ib qilish uchun mo'ljallangan. Bu keng ko'lamli strategiyaning bir qismi bo'lib, iqtisodiy o'sishni va madaniy merosni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ushbu yuqoridagi ma'lumotlar bejizga emas, chunki biz tarixan hunarmandchilik markazlaridan hisoblanamiz. Markaziy Osiyo tarixan hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri bo'lib, mintaqaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Hunarmandchilikning tashkil topishi va mehnat munosabatlarining yuzaga kelishi, bu hududda yuz bergan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda hunarmandchilikning rivojlanishi va mehnat munosabatlarining shakllanishi tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Hozirgi kunda texnologiyalar judayam rivojlangan va siz istalgan ma'lumotni onlayn topishingiz mumkin, lekin baribir kitoblar har qanday sohada bizga eng yaxshi yo'lni ko'rsatib kelgan. Shu boisdan hunarmandchilik sohasida bugungi kunda ko'zga ko'ringan ilimlarning ba'zi qarashlariga to'xtalib o'tsak. Britaniyalik Manchester Metropolitan Universiteti professori Kristina Niedderer (2017) hunarmandchilikka oid tadqiqotlarda tanilgan bo'lib, u asosan materiallar, hunarmandchilik jarayonlari va uning madaniy ahamiyati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib kelmoqda. Kristina Niedderer hunarmandchilikni nafaqat estetik, balki ijtimoiy va ekologik o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlovchi vosita deb biladi. U o'zining "Design for Behaviour Change" kitobida hunarmandchilikning ahamiyatini insonlarning kundalik hayotdagi qarorlarini ongli ravishda boshqarishga yordam beradigan usul sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, hunarmandchilik orqali yaratilgan mahsulotlar, odamlarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka va sog'lom turmush tarziga undash uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin.

Garvard Tibbiyot hamda Garvard Sog'liqni saqlash maktabi professori Atul Gawande (2010) garchi jarroh va sog'liqni saqlash sohasidagi tadqiqotchi bo'lsa-da, Gawande o'zining "The Checklist Manifesto" kitobida murakkab jarayonlarni boshqarishda "hunarmandchilik" yondashuvini o'rganadi. U kitobda nazorat ro'yxatlari orqali tibbiyot, aviatsiya va qurilish kabi sohalarda aniqlik va samaradorlikni oshirish mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Bu kitob ilm-fan va tibbiyot sohasidagi aniqlikni va deyarli san'at darajasidagi sinchkovlikni namoyish etadi.

Markaziy Osiyo qomusiy olimlarining hunarmandchilik haqidagi asarlari va fikrlari tarixiy va madaniy jihatdan juda boydir. Ularning asarlari orqali hunarmandchilikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyati ham ochib berilgan.

Bundab tashqari bir qancha xorijiy olimlar o'z maqolalarida hunarmandchilik sohasidagi raqamlashtirishning avfzalliklarini sanab o'tishgan.

Ibn Xaldun (1332-1406) arab tarixchisi, faylasufi va sotsiologi bo'lib, uning mashhur asari "Muqaddima" da hunarmandchilik va mehnat munosabatlari haqida muhim fikrlar keltirilgan. U hunarmandchilikni iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari qatorida ko'rib, uning jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi rolini ta'kidlaydi. U hunarmandchilikni moddiy boyluk yaratishda muhim omil deb biladi<sup>5</sup>. Ibn Xaldun hunarmandchilikni dehqonchilik va savdo bilan taqqoslaydi va uning murakkabligini, ijodkorlik talab etishini ta'kidlaydi. U hunarmandlarning

<sup>4</sup> "O'zbekiston-2030" strategiyasi

<sup>5</sup> Ibn Xaldun - "Muqaddima".

mehnati yuqori mahorat va tajribani talab qilishini qayd etadi. Shuningdek, Ibn Xaldun shaharlar rivojlanishi bilan hunarmandchilikning rivojlanishini bog'laydi. Uning fikricha, shahar madaniyati va iqtisodiy taraqqiyoti hunarmandchilikning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Markaziy Osiyoda ko'plab qomusiy olimlar hunarmandchilik haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirgan va asarlar yozgan. Ular orasida eng mashhurlari Al-Beruniy va Al-Farobiydir.

Al-Beruniy (973-1048) o'zining ko'p qirrali asarlarida hunarmandchilik va texnologiya haqida ham fikrlar bildirgan. Al-Beruniyning "Kitab al-jamahir fi ma'rifat al-jawahir" (Javohirlar haqida kitob) asarida minerallar va ularning ishlatilishi, shu jumladan zargarlik va hunarmandchilikda qo'llanishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Al-Beruniy hunarmandchilikda metall va kimyoviy jarayonlar haqida yozib, bu sohalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan (Karimov, 2012).

Al-Farobiy (872-950) hunarmandchilik va uning jamiyatdagi o'rni haqida falsafiy fikrlar bildirgan. U hunarmandchilikni jamiyatning muhim bir qismi deb biladi va uning ijtimoiy tuzilma va iqtisodiy tizimdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Al-Farobiy hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ta'lim va kasbiy tayyorlov muhimligini qayd etadi. Uning fikricha, hunarmandlar yaxshi tayyorlangan bo'lishi kerak va bu jamiyatning umumiy rivojlanishiga yordam beradi (Niedderer, 2017).

Ushbu olimlarning asarlari hunarmandchilikning nafaqat texnik jihatlari, balki uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ham ochib berishga yordam beradi. Ular hunarmandchilikning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar va omillar haqida muhim fikrlar bildirgan.

Garcia, Thompsonlar (2007) o'z maqolalarida raqamli vositalarning hunarmandchilik sohasini qanday tubdan o'zgartirayotganini tahlil qiladi. Maqolada 3D printerlar, dizayn dasturlari, onlayn savdo platformalari va boshqa raqamli vositalar orqali hunarmandchilikni rivojlantirish yo'llari ko'rsatiladi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Markaziy Osiyoda hunarmandchilikning tashkil topishi va mehnat munosabatlarining shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlarning natijasidir. Ushbu tadqiqotda ko'rsatilganidek, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy hunarmandchilik markazlari hunarmandchilik rivojlanishining asosiy bosqichlarini boshdan kechirdi.

Asosiy natijalar quyidagilardan iboratdir:

- Hunarmandchilik va Shahar Madaniyati: Hunarmandchilikning rivojlanishi bevosita shahar madaniyati va iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liqdir. Shaharlar iqtisodiy markaz bo'lib, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va savdosining asosiy manzili hisoblangan.

- Ibn Xaldunning Fikrlari: Ibn Xaldunning "Muqaddima" asarida hunarmandchilikning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi roli batafsil yoritilgan. Uning fikricha, hunarmandchilik murakkab va ijodkorlikni talab qiluvchi faoliyat bo'lib, shaharlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

- Qomusiy Olimlarning Hissasi: Al-Beruniy va Al-Farobiy kabi qomusiy olimlar hunarmandchilikning texnik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari haqida qimmatli asarlar yozgan. Ular hunarmandchilikning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar va omillarni tahlil qilib, hunarmandchilikni jamiyatning ajralmas qismi sifatida ko'rsatgan.

- Mehnat Munosabatlari: Hunarmandchilikda mehnat taqsimoti, ustoz-shogird munosabatlari va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar hunarmandchilikning barqaror rivojlanishini ta'minlagan va jamiyatdagi mehnat munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

- Hozirgi Vaziyat: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida hunarmandchilikni rivojlantirish uchun keng ko'lamli choralar ko'rilmogda. Prezident qarorlari va "O'zbekiston-2030" strategiyasida hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish, turizmni rivojlantirish va davlat ko'magini kengaytirish kabi yo'nalishlar belgilangan. Bu esa milliy madaniyatni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Hunarmandchilikning rivojlanishi bilan birga mehnat munosabatlari ham shakllangan. Hunarmandchilik ustaxonalari va **gilam to'qish** markazlarida mehnat taqsimoti va tashkiloti muhim ahamiyat kasb etgan. **Ustoz-shogird** munosabatlari asosida hunarmandchilik kasblari avloddan-avlodga o'tib borgan. Har bir hunarmand o'z ishini yaxshi bilishi va uni mukammal darajada bajarishi uchun katta ma'uliyatga ega bo'lgan.

Hunarmandlar orasida ijtimoiy tabaqalanish ham kuzatilgan. Misol uchun, yetakchi ustalar o'zining malakasi va mahsulotlarining sifati tufayli jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan. Shogirdlar esa ustozdan hunar o'rganish jarayonida mehnat intizomi va kasb sirlarini egallaganlar.

Markaziy Osiyoda hunarmandchilikning tashkil topishi va mehnat munosabatlarining shakllanishi bir nechta omillarga bog'liq bo'lgan. Birinchidan, mintaqaning geografik joylashuvi va tabiiy resurslari hunarmandchilikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchidan, savdo yo'llarining mavjudligi va xalqaro savdo munosabatlari hunarmandchilik mahsulotlarining eksport qilinishiga imkon yaratgan.

Shuningdek, madaniy va ijtimoiy omillar ham muhim rol o'ynagan. Hunarmandchilik an'analari asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu jarayonda diniy va etnik omillar ham ahamiyatli bo'lgan, chunki hunarmandchilik ko'pincha muayyan etnik guruhlar yoki diniy jamoalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Raqamlashgan va ananaviy hunarmandchilikning farqlarini ko'rib chiqsak:

### 1-jadval

#### Raqamlashgan va ananaviy hunarmandchilikning ayrim farqlari

Raqamlashgan	An'anaviy
Mahsulotlar onlayn platformalar orqali sotiladi	Mahsulotlar asosan bozorda yoki do'konlarda sotiladi
Raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlar orqali mijoz topish	Odatda og'zaki reklama yoki do'konlar orqali mijoz topiladi
Elektron tijorat (to'lovlar raqamli shaklda qabul qilinadi)	Naqd pul yoki an'anaviy usulda to'lovlar qabul qilinadi
3D texnologiyalar va raqamli dizayn dasturlari yordamida ishlab chiqarish	Mahsulotlar qo'lda va an'anaviy usullarda ishlab chiqariladi
Global bozorlarga chiqish imkoniyati	Asosan mahalliy bozorda faoliyat yuritadi
Mahsulot sifati va jarayonlar raqamli vositalar bilan kuzatiladi	Mahsulot sifati qo'l bilan nazorat qilinadi
Samaradorlikni oshirish uchun avtomatlashtirilgan jarayonlar qo'llaniladi	Ishlab chiqarish ko'proq qo'lda va ko'p vaqt talab etadi
Ma'lumotlar tahlili orqali mijozlar talabini o'rganish	Mijozlar talabi tajriba asosida tushuniladi
Raqamli hujjatlar va hisob-kitob tizimlaridan foydalanadi	Qog'oz hujjatlar va oddiy hisob-kitob usullari qo'llaniladi
Innovatsion va zamonaviy texnologiyalarga tez moslashish	An'anaviy texnologiyalar va usullardan foydalanish davom etadi

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Ushbu jadval raqamlashgan va ananaviy hunarmandchilik faoliyatlarini yoritib beradi va Mamlakatimizdagi Uyushma hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlantirish, mahsulotlarini targ'ib qilish, moliyaviy yordam ko'rsatish, malaka oshirish va kasbiy tayyorlov

dasturlarini tashkil etish, milliy hunarmandchilik merosini saqlash, hamkorlik va tajriba almashishni rivojlantirish, ko'rgazmalar va yarmarkalarni o'tkazish hamda hunarmandlar huquqlarini himoya qilish kabi ko'plab faoliyatlarni amalga oshiradi hamda sohaga raqamli texnologiyalarni jalb qilishda davom etmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Hunarmandchilik Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ibn Xaldun va Markaziy Osiyo qomusiy olimlarining asarlari va fikrlari hunarmandchilikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ham ochib beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun qabul qilingan qonun va qarorlar, strategiyalar va davlat ko'magi ushbu sohani yanada yuksaltirishga qaratilgan.

Raqamli texnologiyalarni hunarmandchilik korxonalarini va faoliyatiga joriy etish, sektorda ko'plab ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Raqamlashtirilgan hunarmandchilik jarayonlari avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, onlayn savdo va marketing, elektron to'lov tizimlari kabi innovatsiyalar orqali samaradorlikni oshiradi va global bozorda raqobatbardoshlikni yaxshilaydi. Boshqa tomondan, raqamlashtirilmagan hunarmandchilik odatda qo'lda ishlab chiqarish, mahalliy bozorlarda savdo va an'anaviy marketing usullarini qo'llaydi, bu esa samaradorlikni cheklashi mumkin.

### **Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference.**

Atul Gawande (2010) *"The Checklist Manifesto"*. Metropolitan Books of Henry Holt and Company LLC.

Boboyev. S. (2015) *"Hunarmandchilik va uning rivojlanish tarixi."* Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti – Samarqand.

Karimov. A. (2012) *"Markaziy Osiyo savdo yo'llari va hunarmandchilik"*. Buxoro Davlat Universiteti Nashriyoti- Buxoro.

Kodeks (2022) *O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi- Toshkent.*

Kristina Niedderer (2017) *"Design for Behaviour Change"* - Manchester Metropolitan University, 45-60 b.

Qonun (2021) *O'zbekiston Respublikasining "Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni.* Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

Rahmonov. U. (2018) *"Hunarmandchilikning iqtisodiy asoslari."* Xorazm Davlat Universiteti Nashriyoti. Xiva.

Thompson L., Garcia E., Malloy D. (2007) *Reliance on visible speech cues during multimodal language processing: Individual and age differences Experimental aging research* 33 (4), 373-397.